

Shadiyeva Nigora Sharipovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Geografiya" kafedrası dotsenti,
p.f.f.d. (PhD)
nigrollashadiyeva10@gmail.com

DASTURIY TA'LIM VOSITALARI HAMDA GEOGRAFIYA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISH METODIKASI VA KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID TADQIQOT ISHLARINING TAHLILI

Annotatsiya. Taraqqiyot bosqichlarining dolzarb masalalari ta'limning ustuvor yo'nalish sifatida bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda, innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak kadrlarning raqobatbardoshligini oshirish, dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Kalit so'zlar: dasturiy vositalar, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy faoliyat.

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ ПО РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ И МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ-ГЕОГРАФОВ

Аннотация. Актуальные вопросы этапов развития образования изучаются как приоритетное направление, в частности, подготовка будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности, разработка инновационных моделей и повышение конкурентоспособности будущих кадров.

Ключевые слова: программные инструменты, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность.

ANALYSIS OF RESEARCH WORK ON THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES AND TEACHING METHODS FOR GEOGRAPHY STUDENTS

Abstract. Current issues of the stages of development are being studied as a priority area of education, preparing future teachers for innovative professional activities, developing innovative models, and increasing the competitiveness of future personnel, as one of the current areas.

Keywords: software tools, competence, competence, professional competence, professional activity.

Kirish. Respublikamizning oliy o'quv muassasalaridagi geografiya ta'lim yo'nalishi qator sohalar kabi tezlik bilan innovatsion rivojlanib borayotgan sohalardan hisoblanadi va bunda albatta kelajagimiz davomchilari hisoblangan yoshlarning turli jabhalarda amaliy kompetensiyaga ega holda tarbiyalash bugungi kun o'qituvchisining oldiga qator vazifalarni qo'yadi. Kasbiy kompetensiya ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida taraqqiy etish orqali rivojlangan mamlakatlar standartlari talablariga javob beradigan kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilgan, ta'lim jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda bo'lajak geografiya fani o'qituvchisi nafaqat fanni bilish, auditoriyani boshqarishi va o'quvchilarga bo'lgan muhabbat kasbiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'lishi kerak. Shuningdek, geografiya fan o'qituvchisi kasbiy kompetentligiga professional darajadagi ta'limni tashkil etish va boshqarish, ya'ni maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha qolaversa oliy ta'limdan keyingi ta'limni samarali va yuqori saviyada

tashkil etish kiradi. Bunda uning yoshi va jinsi, irqi va millati ahamiyat kasb etmagan holad kasbiy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganligi muhim ahamiyat kasb etadi. (1-jadvalga qarang):
1-jadval

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchisi kasbiy faoliyati

<i>No</i>	<i>Nomi</i>	<i>Izoh</i>
1	Geografiya fanini o'qitishning turli shakllari va uslublari ega bo'lish	shu jumladan, doimiy dastur doirasidan tashqari
2	Fanni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi, rivojlantirishi va qo'llashi	
3	Fanni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi, rivojlantirishi va qo'llashi	Dasturiy ta'lim vositalarining bilish darajasi
4	o'quvchilarning ayrim toifalari uchun maxsus individual yondashuvlarni amalga oshirish ya'ni mobil ta'limni maqsadli tashkil eta olishi	masalan, nutqida, aqlida, o'zlashtirida va psixikasida nuqsoni bo'lgan nogiron o'quvchilar uchun
5	Geografiya fanini o'qitishda inklyuziv ta'limni samarali va maqsadli tashkil etish hamda boshqarish	talabalarni oila, jamiyatda va guruhlarda insonparvarlik kommunikatsiyasini shakllantirish
6	Axborot texnologiyalaridan har tomonlama yuqori saviyada foydalanish va geografiyani innovatsion ta'lim dasturiga muvofiq o'qita olishi	tabiat va jamiyatning turli jabha va sohalarida yuz beradigan hodisalarni geografik tomonlarini tushuntirish
7	Bilim va axborot ko'lami hamda sifat darajasi yuqoriligini ta'minlash maqsadida chet tillaridan birini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi hamda fanga oida chet el manbalarni o'quvchilarga yetkazib, tahlil qila olishi	til bilish sertifikatiga ega bo'lishi
8	DTS dasturidan tashqari holatda fanni o'qitishning kreativ yondashuvli malakasining o'zlashtirganligi	DTSning samarali bazasi tarkibida ta'limning mahalliy va tarixiy mohiyati

Ta'kidlash lozimki bugungi kunda har bir inson (ota-ona) zamonaviy o'qituvchi xususida o'z qarashiga ega bo'lib, ularning aksariyati o'z-o'zini rivojlantirish va xatolarni tan olish qobiliyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sinfda ko'rishni va farzandlariga ta'lim berishni istaydi.

Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilar oila, jamiyatda va guruhlarda insonparvarlik kommunikatsiyasini shakllantirish, psixologik holatini inobatga olib korreksion-treningli metodlari, raqamli texnologiy va dasturiy ta'lim ilovalaridan foydalanib individual imkoniyatlarini oshirishda motivatsiya berish borasida jahon miqyosida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik, ilmiy-psixologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berishga dunyoviy yondashuvlarni o'rganish, ular asosida mentalitetimizdan kelib chiqib milliy inklyuziv ta'lim jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilar o'z-o'zini baholash texnologiyalari, moslashuv va muloqotni tashkil qilishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Hurmatli Prezidentimizning 2020 -yil 23 -sentabrdagi O'PQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda "har bir bolaning ta'lim olishdagi teng huquqli" ligini ta'minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan "inklyuziv ta'lim" tushunchasi ham kiritildi. Shuningdek, mazkur qonunning 55-moddasida "rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar ta'lim olish huquqiga egadirlar" – deyiladi [1].

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun avvalo bo'lajak geografiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalar tizimi – bu tabiatning geografik mazmuni va bilimlar jarayonini o'ziga xosligi hamda kasbiy faoliyat sohasidagi xarakteristikalar majmuini yaratish kerak bo'ladi. Ularda shakllangan kompetensiyalarni baholash

esa, ijobiy natijaga erishishning asosiy mezonlaridan hisoblanadi. DTSning samarali bazasi tarkibida ta'limning mahalliy va tarixiy mohiyati, uning geoekologik va amaliy yo'nalishi, mintaqaviy geografik komponenti, kartografik savodxonligi, sinf va maktabdan tashqari tadbirlarini tashkil etishga tayyorligi (kuzatuvlar, ekskursiyalar, turizm, joylarda amaliy ishlar, "yashil" maydonlarda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish) muhim ahamiyatga ega. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, quyidagi uchta maxsus vazifaning geografik profilni konkretlashtirish maqsadga muvofiq:

- tabiat va jamiyatning turli jabha va sohalarida yuz beradigan hodisalarni geografik tomonlarini tushuntirish, tahlil qilish, baholash, fanning konseptual va kategorik apparatlarini qo'llash hamda geografik tildan foydalangan holda turli xil qarashlarni tahlil etish, ilmiy munozaralar o'tkazish, nazariy gepotezalarini shakllantirish;

- ta'limning barcha shakllarini (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya, mustaqil ishi, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi) innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish, zamonaviy geografik ma'lumot vositalaridan (kosmik tasvirlar, anamorfik xaritalar, tabiiy va noxush hodisalar xaritalari va boshqalar) foydalanish, kerakli ma'lumotlarni xaritada ko'rsatish, statistik materiallarni tahlil qilish va geografik sharhlash hamda prognozlashtirish;

- o'quv jarayonida o'z mintaqasini geografik jihat va holatlarini mukammal bilishning turli usullarini qo'llash, mintaqaning geografik xususiyatlarini ilmiy-nazariy asoslash, shahar va qishloq joylarida (umumiy ta'lim va sinfdan tashqari) o'quvchilarning (ko'chma) o'quv mashg'ulotlarini, ekskursiyalarini tashkil etish va o'tkazish uchun ob'ektlarni tanlash.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi" PF-134-sonli Farmonining 7-bobiga muvofiq "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining pedagog kadrlarning kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar bo'yicha o'qitish amaliyotini joriy qilish taklifi" shuningdek, "Ta'lim dasturlarini takomillashtirish yo'nalishida zamonaviy metodlarga asoslangan ta'lim dasturlari va darsliklarni xarid qilish hamda umumiy o'rta ta'lim tizimiga joriy qilish choralari ko'rish" [3].

Oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamimizda ta'limning moddiy texnik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida axborot-ta'lim muhitini yaratish, axborot resurslarini ishlab chiqish, ularni ta'lim jarayonida qo'llash metodikalarini takomillashtirish, o'quvchilar va o'qituvchilarning jahon ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu o'rinda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Hozirgi zamon globallashtirish jarayonida yetuk mutaxassis-kadrlarni tayyorlash zarurati, demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini amalga oshirishda, kreativ fikrlovchi, innovatsion texnologiya hamda dasturiy ta'lim vositalarini mukammal egallagan, mutaxassis kadrlarning innovatsion ta'lim tendensiyalari asosidagi xalqaro pedagogik tajribaga ko'ra, Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatga oid kreativligini rivojlantirishda birqancha dasturlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'lim

vositalarining yangi avlodlarini takomillashtirish orqali majburiy va tanlov fanlarini virtual reallik qonuniyatlari asosida talabalarni innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida dasturiy ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi, kompyuter dasturlaridan foydalanish metodikasi asosida o'qitishni mazmunan takomillashtirish jarayonini keng joriy etish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi [7].

O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda chet el va mahalliy olimlarning mavzu sohasidagi ilmiy-nazariy qarashlari, g'oyalari va ilgari surilgan asosli fikrlari muhimdir. Mazkur mavzu ilmiy-pedagogik tadqiq etilishidan oldin atamalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra, mualliflik yondashuvi bo'lishini talab qiladi. Jumladan, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchasi keng qamrovli ma'noga ega bo'lib, uning mazmun va mohiyati turli soha olimlari tarafidan turlicha talqin qilinadi.

Xorijda ta'limda kompetnsiyaviy yondashuv masalalari yuzasidan dastlabki qarashlar F.dalamer va J.Winterton tomonidan, keyinchalik O.S.Gbrebenyuk va T.B. Grebenyuklar tabiiy fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishning didaktik vositalarniislab chiqish va ulardan samarali foydalanish masalalari M.Berkman, B. Bishop, J. Miller, M.Clores, E. Kose tomonidan tadqiq etilgan. Kasbiy metodik kompetensiyalari tarkibiy tuzilishi, mazmuni o'z aksini topga.

Tahlil natijalari. Respublikamiz pedagog olimlaridan A.A. Abduqodirov, U.Sh. Begimqulov, B.Z. To'rayev ta'limni axborotlashtirish; N.K. Axmedov, U.I. Inoyatov, Sh.E. Qurbonov, E.A. Seytxalilov ta'lim sifatini boshqarish; R.B. Abdurahmonova, G.G' Azizova, N.A. Muslimov, D.Yunusova bo'lajak mutaxassislarining kasbiy-metodik kompetensiyalarni rivojlantirish; N.N. Narziyeva o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar asosida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish; I.Azimov, U.B.Baxodirova, M.N.Ibodova, O.Mavlonov, A.K. Raximov, J.O. Tolipova, N.J. Toshmanov, Sh. Xasanova, G.S. Ergasheva, L. Qoraxonova, A.T. G'ofurov va boshqalar tomonidan xususiy-metodik darajadatabiiy fanlarni o'qitish vositalardan foydalanish, kasbiy-metodik kompetensiyalarni shakllantirish yo'nalishida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Pedagog olim N.A.Muslimov tomonidan talaba yoshlarda kasbiy xislatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan.

P.M.Lutfullayevning "Xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari" mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida sifat va raqobatbardoshlikni ta'minlash omillari xalqaro tajribada keng tarqalgan «bilimlarning kommersiyalanishuvi» va "transnatsional ta'lim" faoliyat mazmuni asosida aniqlashtirilib, xalqaro ta'limni tashkil etish orqali budjetdan tashqari mablag'larning oshirilishi kabi ko'rsatkichlarga tayangan holda takomillashtirilgan [7].

Respublikamiz olimlaridan F.T.Rajabovning "Zamonaviy yondashuvlar vositasida bo'lajak geografiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari", 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (geografiya) (pedagogika fanlari) bo'yicha qilingan ilmiy ishlarida, bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik zarurati shaxsga yo'naltirilgan va tadqiqotlarni real amaliy sharoitga ko'chirish natijasida talabalarining rivojlanish vektorini ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimlari vositasida rivojlantirish orqali asoslangan. [7].

X.N.Amonovning "Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayorgarligini takomillashtirish metodikasi" mavzusidagi ilmiy ishida bo'lajak geografiya o'qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari professional va ma'naviy-ahloqiy sifatlarni idientiv uyg'unlashtirish, hamda innovatsion pedagogik faoliyat rivojlantirishining kongnitiv-refleksiv dinamikligini superviziya so'rovnomalari va kouching metodlarining ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirini bosqichma-bosqich aniqlash asosida takomillashtirilgan. [7].

D.N. Abdullayevaning "Umumta'lim maktab o'quvchilarining geografik-ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy ishida "inson-tabiati" munosabatlarining progressiv rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan nazariy-metodologik faoliyat yo'nalishlari integrativ salohiyatini motivatsion-shaxsiy sifatlarni

rivojlantirish hamda geografik-ekologik madaniyatini shakllantirish samaradorligi geoekologik kompetensiyani shakllantirish darajasining pedagogik jihatlarini integrativ yondashuvning qayta aloqaga kirishish darajasi (individualuslubiy, intuitiv) ni aniqlash asosida takomillashtirilgan [7].

Tadqiqotchi Z.N.Tojiyevaning "O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari", 11.00.02–Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya (geografiya fanlari) mavzusidagi bajarilgan ilmiy ishlarida, o'rta va uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlariga asoslangan demografik prognoz parametrlari ishlab chiqilgan[5; 8-24-b.].

X.T.Egamberdievning "O'zbekistonda antropogen omillarni hisobga olgan holda atmosfera tiniqligining quyosh energiyasi resurslariga ta'siri" 11.00.04–Meteorologiya. Iqlimshunoslik. Agrometeorologiya (geografiya fanlari) shifri asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishida O'zbekistonning tabiiy-geografik sharoitlari uchun suv bug'i va atmosfera aerizoli hisobiga to'g'ri Quyosh radiatsiyasi kuchsizlanishining me'yorlashtirilgan koeffitsientini hisoblash metodikasi suvning keltirilgan qatlamini aniqlash asosida, dengiz sathiga nisbatan balandligini hisobga olib takomillashtirilgan kartalashtirish metodikasi asosida to'g'ri va yalpi Quyosh radiatsiyasining mavsumiy yig'indilari kartalari yaratilgan [7].

Z.T.Raximovning "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning o'quv bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" 13.00.05- Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi shifri asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning innovatsion metodologik yondashuv asosida kasbiy-pedagogik (ta'limiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy tadqiqot, ishlab-chiqish texnologik, va ixtisoslik fanlarda) qo'llash bo'yicha tashkiliy metodik tizimi komponentlari takomillashtirilgan[6; 9-12-b.].

Xulosa va tahlillar. Kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etishning metod va vositalarini takomillashtirishni, shu bilan birga ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning yetarli darajada rivojlantirilishini talab qiladi (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Kasbiy faoliyatga ega talaba o'zida quyidagi malakalarni namoyon eta oladi

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi, o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi, ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi, muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak "Geografiya" fani o'qituvchilarga o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda kreativ g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kasbiy kompetensiya sifatlarga ega bo'lajak pedagogning innovatsion kasbiy

faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish orqali o'quv faoliyatida, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirishi hamda hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23 sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga
3. 2022-yil 11-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi" PF-134-sonli Farmoni
4. Kaxarova D.S. Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi.
5. Tojiev Z.N. «O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari». Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2019-yil.125 b.
6. Raximov Z.T. "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning o'quv bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2021-yil.62 b.
7. Jo'rayev A.R., Shadiyeva N.Sh., Shoyimov A.M. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarining o'rni // O'zMU xabarlar. № 3. Toshkent 2022-yil. 58-61 b